

METHODS OF ANALYZING SENTENCES WITH A LOCATIVE COMPONENT**Zubaydova Nilufar Ne'matillayevna**

SAMSIFL, Acting Associate Professor of the

Department of English Language Theory

Abstract

This article is devoted to the structure of sentences with locative components in the Uzbek language, revealing their semantic-morphological nature, and studying the linguistic methods used in the analysis. The research is based on structural, semantic, distributive, and generative-transformation methods. The article analyzes the advantages of each method in the analysis of locative components based on practical examples.

Keywords

locative component, predicativity, linguistic method, syntactic analysis, semantics, morphological sign

LOKATIV KOMPONENLI GAPLAR TAHLILI METODLAR**Annotatsiya**

Mazkur maqola o'zbek tilidagi lokativ komponentli gaplarning tuzilishi, ularning semantik-morfologik tabiatini ochib berish, hamda tahlilda qo'llanilgan lingvistik metodlarni o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda strukturaviy, semantik, distributiv hamda generativ-transformatсион metodlarga tayanilgan. Maqolada har bir metodning lokativ komponentlarni tahlil etishdagi afzalliklari amaliy misollar asosida tahlil etilgan.

Kalit so'zlar

lokativ komponent, predikativlik, lingvistik metod, sintaktik tahlil, semantika, morfologik belgi.

1. Kirish (Introduction)

Sintaktik qurilmalar tadqiqida zamonaviy lingvistik tahlil qilish usullaridan samarali foydalanish va ularni chog'ishtirma tadqiqotlarda qo'llash bugungi kunda tadqiqotlari uchun nihoyatda muhim hisoblanishi izoh talab qilmaydi.

Ma'lumki, ayni paytgacha sintaktik-semantik muammolarni ham so'z tuzilishi, leksik ma'nolar mezonlari asosida o'rganilishi ko'p hollarda tadqiqotchilar fikrlarida o'zaro nomushtarakligiga sabab bo'lmoqda. Ba'zi tadqiqotchilar tomonidan leksik ma'no grammatikaning asosi deb tan olinsa, ayrimlari esa bu borada leksik ma'noni rad etishadi, uchinchi guruh mutaxassislar bunday tushunchalar majmuini hattoku, lisoniy kategoriya sifatida tan olishmaydi¹. Tilshunoslik tarixidan ma'lumki, ingliz hamda amerikalik tilshunoslar gapning

¹ Звегинцев В.А. Проблемы значения в современном языкознании // Новое в лингвистике. Вып.2. – Москва, 1968. – С. 9-16.

sintaktik tahlili va tadqiqiga turlicha yodashadilar. Masalan, sintaktik obyektini tahlil etishda qismlarga ajratib tahlil qilishning o'zi bir necha ko'rinishlarga ega. A.A.Xill tagmemalarni aniqlash (ya'ni tagmema bu gapni minimal funksional segmentlarga ajratish, ya'ni gap bo'laklarini o'z ichiga qamrab olishidir)², jarayonida zanjirli tahlilga Z.S.Xerris esa bo'lib, ya'ni gap tarkibini elementar gapga aylantirish va distributsiya asosida adyunktlarga ajratish usuli bilan³, R.E.Longakr ham zanjirli tahlilni bevosita ishtirokchilarga bo'lib tahlil qilish orqali amalga oshiradi⁴.

An'anaviy grammatikalarda gapning sintaktik tahlili bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga bo'lib tahlil qilinib kelinmoqda. Lekin gap tahlilini bo'laklarga ajratib tahlil qilishda sintaktik ajraladigan va ajralmaydigan birliklar farqlanmaydi. Gap bo'laklari tushunchasida sodda elementlar sintaktik birliklar hodisasiga e'tibor qaratilmaydi. Buning sababi bosh bo'laklar ham ikkinchi darajali bo'laklar ham sintaktik jihatdan ajraladigan birliklar bir sintaktik funksiyani bajaradi, degan qarash ustivorlik kasb etib kelmoqda.

Til birliklarining sintaktik tuzilmalaridagi joy munosabatini ifoda etuvchi lokativ komponentlar tahlili o'zbek tilshunosligida muhim o'rin tutadi. Bu komponentlar "qaerda?", "qayerda joylashgan?", "qayerga yo'nalgan?" kabi savollarga javob beradi va gapdagi morfologik hamda sintaktik munosabatlarni belgilaydi.

Kitob stol ustida turibdi.

Bu gapda "stol ustida" komponenti lokativ ma'noni ifodalaydi va predmetning joylashuvini bildiradi. Lokativ komponentlar semantik va sintaktik tahlilda bir nechta yondashuvlar orqali o'rganiladi. Xususan, strukturaviy tahlil, distributiv metod, generativ sintaksis, hamda kognitiv-lingvistik yondashuvlar bu sohada samarali natijalar bergan.

Mazkur ishda transformatsiya atamasi o'rniga eksperimental kuzatuv usuli atamasidan foydalanamiz. Lisoniy eksperimental tahlil qilinayotgan gaplarda sintaktik birliklarning relevantlik (mutanosiblik) hodisalarini ochib berishga imkon yaratadi. Shunday qilib, aniqlangan sintaktik aloqalar yunksion modellar orqali taqdim etilib, mazkur sintaktik aloqalar asosida sintaktik birliklarning differensial sintaktik belgilari aniqlanib, ularning morfologik ifodalanish usullari esa komponent modellar yordamida o'z ifodasini topadi. Eksperimental tahlil metodi, asosan, ishimizda struktural sintaksis asosida sintagmatik yo'nalishda gap qurilmasidagi sintaktik birliklarning o'zaro sintaktik munosabatlarini hamda ularning differensial sintaktik belgilarini aniqlashtirishda ma'lum chegaradan chiqmagan holda tahlil qilinadi. Boshqacha aytganda, bu usul lokativ unsurli gaplardagi yadro va yadro bo'lmagan komponentlarni bir-biridan farqlashga imkoniyat yaratadi.

O'rin holli gaplarning navbatdagi tahlil bosqichi esa aniqlangan komponentlarning differensial sintaktik-semantik belgilarini paradigmatic yo'nalishda, ya'ni oppozitsiya metodi yordamida aniqlanishidir.

Gap tarkibidagi sintaktik birliklarni sintaksemlarga ajratib tahlil etishda, birinchi navbatda, kategorial differensial sintaktik-semantik belgilar aniqlanib, ular asosida gap tarkibida tutgan o'rniga qarab nokategorial belgilar aniqlanadi.

Sintaksemlarni aniqlashda tahlil qilinayotgan gapdan tashqari, ya'ni ushbu gapdagi sintaksemani boshqa gapdagi bir xil sintaktik o'rinda kelgan unsurlarning sintaksemlari bilan, ya'ni turli tizimli tillar misolida taqqoslanadi. Bunda eng muhim masalalardan biri gap tarkibidagi sintaktik birliklarni komponentlarga ajratish ham, sintaksemlarga ajratish ham gap qurilmasida bir xil sintaktik aloqa asosida amalga oshiriladi. Ya'ni A.M.Muxinning ta'kidlashicha: "Gap qurilmasini komponentlarga ajratib tahlil qilish, ya'ni sintaktik birliklarning sintaktik aloqalarini aniqlash hamda ularning differensial sintaktik belgilarining bir-biridan farqini tavsiflab tahlil qilish struktural

² Hill A.A. Introduction to Linguistic structures from sound to sentence in English. – New York, 1958. – 396 p.

³Harris Z.S. String analysis of Sentence Structure. The Hague, 1964. – P. 358.

⁴Longacre R.E. String Constituent Analysis. Language. 1960. v.36, №1, – P.163-189

sintaksisning obykti hisoblanadi. Gapdagi sintaktik birliklarni paradigmatic yo'nalishda sintaksemalarga ajratib tahlil qilish funksional sintaksisning vazifasiga kiradi"⁵.

2. Metodologiya (Methods)

Tadqiqotda quyidagi lingvistik metodlar asos qilib olindi:

Strukturaviy metod - lokativ komponentning gapdagi tuzilishdagi o'rni aniqlash.

Semantik metod - lokativ komponentlarning ma'no so'zlarini tahlil qilish.

Distributiv metod - lokativ komponentlarning boshqa so'z turlari bilan birikish imkoniyatlarini o'rganish.

Transformatsion metod - lokativ komponent ishtirokidagi gaplarning shakl o'zgarishlarini aniqlash.

Kognitiv metod - lokativ ma'nolarning inson idrokidagi konseptual modellarini o'rganish.

Sintaktik-semantik belgilar – bu so'z va ifodalarning sintaktik struktura va ularning ma'nolari o'rtasidagi bog'lanishlarni ifodalaydigan tushuncha hisoblanadi. O'zbek tilida sintaktik-semantik belgilarni turlarga ajratishda bir qancha asosiy ko'rsatkichlar mavjud, substansial sintaktik-semantik belgilar ham shu jumlasidandir.

Substansial sintaktik-semantik belgilar, odatda, erkin so'zlar sifatida tasvirlanadi va ular gapda ishtirok etadigan nominativ funksiyaga ega bo'lgan so'zlar sanaladi. Bu belgilar ma'lum narsalarni, holatlarni yoki obyektlarni nomlaydi va ularga bog'liq sintaktik-semantik talablarga ega.

Substansial belgilar obyekt yoki predmetlarni ifodalaydi. Ular, ko'pincha, nomlar (substantivlar) va nomlash funksiyasini bajargan so'zlarni o'z ichiga oladi.

Sintaktik roli: Ular gapda birinchi darajali o'zgaruvchilar sifatida ishtirok etadi va predikatlar bilan bog'lanib, ma'no hosil qiladi.

Semantik talablarga ega: substansial belgilar ko'pincha boshqa sintaktik unsurlar (masalan, fe'l, sifat) bilan bog'lanadi va ularning ma'nosini to'ldiradi yoki aniqlaydi. Masalan:

Ota kitobni o'qiydi (bu yerda kitob substansial sintaktik-semantik belgi)

Qiz yashil ko'ylakda (bu yerda qiz va ko'ylak substansial birliklardir)

Substansial sintaktik-semantik belgilar turli guruhlariga ajratiladi:

Obyektlar, shaxslar, joylar va h.k. (masalan o'quvchi, maktab, Yozgi bog').

Vaqt va zamonlarni bildiruvchi so'zlar (masalan, bugun, kecha).

Substansial belgilar ko'rsatkichlarni, shaxsni (men, sen, u) yoki tuzilmalarni o'z ichiga oladi.

Substansial sintaktik-semantik belgilar til tizimida muhim kommunikativ va ma'no hosil qiluvchi birliklar sifatida namoyon bo'ladi. Ular orqali gap tarkibidagi boshqa belgilar bilan ma'noviy hamda ijtimoiy bog'lanishlar shakllanadi va bu jarayon nutq mazmunining to'liq anglanishini ta'minlaydi. O'zbek tilida bunday belgilar yangi ma'no yaratish, voqelik haqidagi axborotni yangicha shaklda ifodalash hamda gapning informativ yukini oshirishda faol ishtirok etadi. Ularning sintaktik tizimdagi o'rni va semantik funksiyalari til strukturasining asosiy komponentlarini tashkil etib, tilni o'rganish, uni idrok etish va samarali muloqotni yo'lga qo'yishda alohida ahamiyat kasb etadi.

⁵ Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. – Санкт-Петербург: 2007. – 198 с.

3. Natijalar (Results)

Strukturaviy tahlil shuni ko'rsatadiki, lokativ komponentlar ko'pincha o'tli birikma shaklida namoyon bo'ladi:

Bolalar bog'da o'ynayapti.
Ular maktabda darsda edi.

Bu gaplarda "bog'da", "maktabda" komponentlari joy holatini bildiradi va egalik belgisi bilan morfologik jihatdan belgilanadi.

Masalan:

Mrs. Arable put a pitcher of cream on the table

She watched the bus until it vanished around a turn (E.B.White, Charlotte's Web;128)

Ushbu gaplarda on the table va around a turn sintaktik birliklar substansiallikni ifodalasada, birinchi gapda on the table substansial lokativlikni ifodalaydi, ikkinchi gapda esa around a turn – substansiallik va temporallikni ifodalaydi.

1.1 jadval

Yadro bo'lmagan tobe komponent o'rnida kelgan lokativlikni ifodalovchi sintaktik birliklarni tahlil

Mrs. Arable put a pitcher of cream <u>on the table</u>	substansial lokativlikni	on the table
She watched the bus until it vanished <u>around a turn</u>	substansiallik va temporallikni ifodalaydi.	around a turn
Substansiallikni ifodalagan sintaktik birliklar	on the table va around a turn	

Bunda semalarni isbotlashda substansial lokativ va temporallikni ifodalagan unsurlarni adverbial unsurlar bilan almashtirish mumkin.

1. Mrs. Arable put a pitcher of cream on the table → Mrs. Arable put a pitcher of cream here/there

2. She watched the bus until it vanished around a turn → She watched the bus until it vanished then.

1.2 jadval

Substansial lokativ va temporallikni ifodalagan unsurlarni adverbial unsurlar bilan almashtirish

Mrs. Arable put a pitcher of cream <u>on the table</u>	→Mrs. Arable put a pitcher of cream here/there
--	--

She watched the bus until it vanished <u>around a turn</u>	→ She watched the bus until it vanished then.
--	---

Yoki where va when so‘roq berish yo‘li bilan ham buning guvohi bo‘lishimiz mumkin:

1. Mrs. Arable put a pitcher of cream on the table → where did Mrs. Arable put a pitcher of cream?

2. She watched the bus until it vanished around a turn → when did she watch the bus?

1.3 jadval

Where va When so‘roq berish usuli bilan almashtirish

Where va When so‘roq berish usuli bilan almashtirish	
Mrs. Arable put a pitcher of cream <u>on the table</u>	→ where did Mrs. Arable put a pitcher of cream?
She watched the bus until it vanished <u>around a turn</u>	→ when did she watch the bus?

O‘zbek tili misolida ham shunday holatni ko‘ramiz.

1. Bozor oldida navbat kutayotgan aravalar bir-biriga yaqin tizilib turardi.

2. Tong paytida tog‘ yonbag‘ridan osmonning tiniqligi aniq ko‘rinib turardi (O‘.Hoshimov, Ikki eshik orasi;145).

Bu gaplarda ham substansiallikni ifodalagan sintaktik birliklarni, ya‘ni Bozor oldida adverbial unsurlar u yerda (shu erda, Tong paytida esa o‘sha paytda) kabilar bilan almashtirish mumkin yoki qayerda va qachon so‘roqlarini qo‘yish mumkin:

1. Bozor oldida navbat kutayotgan aravalar bir-biriga yaqin tizilib turardi → u yerda navbat kutayotgan aravalar bir-biriga yaqin tizilib turardi → qayerda navbat kutayotgan aravalar bir-biriga yaqin tizilib turardi?

2. Tong paytida tog‘ yonbag‘ridan osmonning tiniqligi aniq ko‘rinib turardi → o‘sha paytda tog‘ yonbag‘ridan osmonning tiniqligi aniq ko‘rinib turardi → qachon tog‘ yonbag‘ridan osmonning tiniqligi aniq ko‘rinib turardi?

1.4 jadval

Substansiallikni ifodalagan sintaktik birliklar

<u>Bozor oldida</u> navbat kutayotgan aravalar bir-biriga yaqin tizilib turardi	→ u yerda navbat kutayotgan aravalar bir-biriga yaqin tizilib turardi	→ qayerda navbat kutayotgan aravalar bir-biriga yaqin tizilib turardi?
---	---	--

Tong paytida tog' yonbag'ridan osmonning tiniqligi aniq ko'rinib turardi	→ o'sha paytda tog' yonbag'ridan osmonning tiniqligi aniq ko'rinib turardi	→ qachon tog' yonbag'ridan osmonning tiniqligi aniq ko'rinib turardi?

Yuqorida qayd qilganimizdek, substansiallik semalari bazasida lokativlik semalarini va uning variantlarini eksperimental tahlil metodi yordamida aniqlanadi.

4. Muhokama (Discussion)

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, lokativ komponentlar gapning sintaktik to'la tarkibini ta'minlovchi unsur sifatida chiqadi. Ularni tahlil qilishda strukturaviy va semantik metodlarning o'zaro uyg'unligi muhimdir.

Ko'pchilik tadqiqotchilar lokativ komponentlarni "sintaktik to'ldiruvchi" sifatida baholashgan bo'lsa-da, zamonaviy kognitiv yondashuv bu komponentlarni mental fazoviy modeldagi markerlar sifatida talqin etadi. Shu bois, kognitiv-lingvistik metod ularning kontseptual xaritasini aniqlashda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi.

5. Xulosa (Conclusion)

Yuqorida keltirilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, gap qurilmasida lokativlik masalasi tilshunoslikdagi murakkab va bahsli masalalardan biridir. An'anaviy sintaksisda ikkinchi darajali bo'lak sifatida qaraladigan holat, aslida, mustaqil sintaktik-semantik tizimni tashkil etadi. Ingliz tilida substansial lokativ adessiv sintaksemlarning antesedentlari alohida hollarda lokativ allativ, translattiv, agentiv, sifat yuklangan relyativ sintaksemlarni ham ifodalaydi. O'zbek tilida esa ular, asosan, lokativ allativ va ablativ sintaksemlarni ifodalaydi. Bu farq ikki tilning tipologik xususiyatlaridan kelib chiqadi: ingliz tilida sintaktik vositalar va predloglarning imkoniyatlari kengroq bo'lsa, o'zbek tilida morfologik ko'rsatkichlar (kelishik qo'shimchalari) asosiy vosita sifatida xizmat qiladi. Lokativlik kategoriyasi gapning semantik va sintaktik tizimida markaziy o'rin tutadi. Uning tahlili faqat an'anaviy bo'laklarga ajratish bilan cheklanmay, balki lisoniy sathlarning o'zaro aloqasi, semantik farqlash va kontekstual qo'llanishlarni ham hisobga olishni talab etadi. Qiyosiy-kognitiv tahlillar shuni ko'rsatadiki, lokativ birliklarning chuqur tadqiqi nafaqat nazariy sintaksis uchun, balki tarjimashunoslik, lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslik uchun ham katta ahamiyatga ega.

References

1. В.А. Звегинцев Проблемы значения в современном языкознании // Новое в лингвистике. Вып.2. – Москва, 1968. – С. 9-16.
2. A.A. Hill Introduction to Linguistic structures from sound to sentence in English. – New York, 1958. – 396 p.
3. Z.S Harris. String analysis of Sentence Structure. The Hague, 1964. – P. 358.
4. R.E. Longacre String Constituent Analysis. Language. 1960. v.36, №1, – P.163-189
5. Мухин А.М. Функциональный синтаксис. Функциональная лексикология. Функциональная морфология. – Санкт-Петербург: 2007. – 198 с.

6. Юсупова Ш.Б. Инглиз тилида маконий муносабатларнинг айрим кўринишлари // Филологиянинг долзарб муаммолари. Тошкент: 2008. Б. 183-185.
7. Каюмова М.С. Инглиз ва ўзбек тилларида неготивлик категориясининг синтаксем тадқиқи: Филол. фан. номз. ... дисс. автореф. – Ташкент, 2010. – 27 б.
8. Облакулова М.М. Инглиз тили гап структурасида феълнинг шахсиз шакллариининг функционал таҳлили: Филол. фан. бўйича фалсафа док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2017. – 46 б.
9. Асадов Р.М. Инглиз тили сода гап курилмаларида моновалентли ва поливалентли компонентларнинг синтактик таҳлили: Филол. фан. бўй. фалсафа док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент, 2018. – 53 б.
10. Каландаров А.Р. Инглиз ва ўзбек тилларида компаративлик категорияси ифодаланишнинг синтактик-семантик хусусиятлари: Филол. фан. бўй. фалсафа док. (PhD) дис. автореф. – Тошкент, 2019. – 51 б.
11. Сулайманова Н.Ж. Локативлик категориясининг синтактик-семантик ва дейктик хусусиятлари: Филол. фан. бўйича фалсафа докт. (PhD) дисс. – Самарқанд, 2018. –155 б.
12. Болтакулова Г.Ф. Инглиз ва ўзбек тилларида темпораллик ва унинг дейктик хусусиятларининг киёсий-функционал тадқиқи: Филол. фан. бўй. фалсафа док. (PhD) дисс. автореф. – Тошкент